UDC: 616.89-008.454:616.831-005

BOSH MIYA AMILOID ANGIOPATIYASI VA ALTSGEYMER KASALLIGI KOGNITIV BUZILISHLARINI SOLISHTIRMA QIYOSLASH

Raximbayeva G.S.
Toshkent Davlat Tibbiyot Universiteti (Toshkent, O'zbekiston)
Saydaliev S.B.
Farg'ona Jamoat Salomatligi Tibbiyot Instituti (Farg'ona, O'zbekiston)

COMPARATIVE ANALYSIS OF COGNITIVE DISORDERS IN CEREBRAL AMYLOID ANGIOPATHY AND ALZHEIMER'S DISEASE

Rakhimbaeva G.S.
Tashkent State Medical University (Tashkent, Uzbekistan),
Saydaliev S.B.
Fergana Medical Institute of Public Health (Fergana, Uzbekistan)

СРАВНИТЕЛЬНЫЙ АНАЛИЗ КОГНИТИВНЫХ РАССТРОЙСТВ ПРИ ЦЕРЕБРАЛЬНОЙ АМИЛОИДНОЙ АНГИОПАТИИ И БОЛЕЗНИ АЛЬЦГЕЙМЕРА

Рахимбаева Г.С.
Ташкентский государственный медицинский университет (Ташкент, Узбекистан),
Сайдалиев С.Б.
Ферганский медицинский институт общественного здравоохранения (Фергана, Узбекистан)

Maqsad. Kasallik tabiati, rivojlanishi va asosiy mexanizmlarini o'rganish va taqqoslash.

Material va usullar. Farg'ona shahrida umumiy kognitiv nuqsoni bo'lgan 120 nafar bemor individual ravishda o'rganildi. Ulardan 53 nafari ayollar, 67 nafari erkaklar bo'lib, yoshi 50-85 orasida, o'rtacha yoshi 67,5 yoshni tashkil etadi. Bemorlarga MoCa, Frontal baholash Batareya testlari va MRT tekshiruvlari o'tkazildi. Tekshiruv natijalariga ko'ra, ulardan 13 tasi (11%) BMAA va 39 (32,5%) AK, qolganlari esa turli xil boshqa turdagi demensiyalar bilan namoyon bo'ldi. MRT tekshiruvlari Boston mezoni asosida tekshirildi va natijada BMAA bilan og'rigan 5 (40%) bemorlarda o'tmishda lobar gematoma bo'lganligi, qolganlarida (60%) turli darajadagi subkortikal, kortikal lakunar o'choqlar va kortikal yuzaki siderozlar aniqlangan. AK bilan og'rigan bemorlarda miya atrofiyasi, gipokompal atrofiya va periventrikulyar leykoarioz aniqlandi. BMAA va AK bilan og'rigan bemorlar MoCa, Frontal baholash batareyasi uchun sinovdan o'tkazildi. MoCa testi BMAA bilan og'rigan bemorlarda o'rtacha 24 ballni, AKda 20 ballni tashkil etdi. FAB testi BMAA bilan og'rigan bemorlarda o'rtacha 10 ball va AK bemorlarida 7 ballni tashkil etdi.

Natijalar. BMAAda kognitiv buzilishlar lobar gematomalar bilan va ularsiz ham sodir bo'lgan, shuningdek, suprakortikal, kortikal lakunar o'choqlar va kortikal yuzaki siderozlar bilan ham erta kognitiv buzilishlar aniqlangan. Umuman olganda, 13 BMAA bilan og'rigan bemorlarning 5 tasida lobar gematomalar va kognitiv buzilishlar ushbu guruhdagi

bemorlarda og'irroq kechgan, bundan tashqari, lobar gematomasi bo'lgan 2 ta bemorda qon ketishdan keyin 1 yil ichida kognitiv buzilish rivojlangan, qolgan 3 bemorda qon ketishdan oldin kognitiv buzilishlar mavjudligi aniqlangan. Turli xil lakunar o‘choqlari bo‘lgan qolgan 8 nafar bemorda kognitiv buzilish yuqoridagilarga qaraganda ertaroq aniqlangan. AK va BMAA ning kognitiv xususiyatlarini solishtirganda, erta xotira buzilishi asosan AK bilan og'rigan bemorlarda kuzatilgan, BMAAda esa xotira buzilishidan ko'ra diqqat muammolari, rejalashtirish va fikrlashni sekinlashishi kabi xususiyatlar ustunlik qilgan.

Xulosa. BMAA va AK keksa bemorlarda ko'proq uchraydi va ularning kognitiv buzilishlari ko‘pincha o‘xshash tarzda namoyon bo'ladi. Biroq, ularni farqlash MoCa, FAB kabi qo'shimcha testlarni va MRT va PET kabi tasvirlash usullarini talab qiladi.